O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko’chasi 8-uy, 190700, tel: (+99876) 47-77-516, oltinsoy_t@exat.uz, www.Oltinsoy.uz

2022 - yil 17 - iyun 231-8-108-Q/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 27-sentyabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24 va 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentyabrdagi PF–6075-son Farmonida 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Oltinsoy tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Matbuot xizmati R.Gapparov mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish hokim o‘rinbosari I.Babakulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.T.Djumayev**

Oltinsoy tuman hokimining
2022 yil 17 iyundagi
231-8-108-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Oltinsoy tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Oltinsoy tuman hokimining «Tuman xududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2021-yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2021-yil 19-fevraldagi Q-261-son qarori.

2. Oltinsoy tuman hokimining «Surxondaryo viloyati hokimining 2019 yil 2 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani 2019/2020 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga kompleks tayyorlashni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2019 yil 30 iyuldagi PQ-4407-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida»gi Q-357-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida»gi 2019-yil 05-avgustdagi Q-5587-son qarori.

3. Oltinsoy tumani hokimining «Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2020 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida» 2020 yil 15 fevraldagi Q-303-son qarori.